

## OILA MIGRATSIYASINING DOLZARB MASALALARI

*Bahriddinova Muazzam*

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"*

*ilmiy tadqiqot markazi doktoranti*

*Omanova Kamola*

*O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi*

So'nggi bir necha o'n yilliklar ichida migratsiya - xalqaro va ichki miqyosda keskin o'sdi. Sayohat qilish osonroq, uzoq joylar, ko'chib ketgan qarindoshlar va do'stlar haqida ma'lumot olish va turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlari har bir oilada muhim ahamiyatga egadir. Sanoat rivojlangan mamlakatlarga xalqaro migratsiya muhim bo'lsa-da, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, migrantlarning qariyb 40 foizi rivojlanayotgan mamlakatdan boshqa rivojlanayotgan mamlakatga ishlash yoki doimiy yashash uchun ketayotganini ko'rish mumkin. Migratsiya oilalarning tuzilishini o'zgartiradi.

Migratsiyaning sabablari ham "qochiruvchi", ham "tortuvchi" bo'lishi mumkin.

"Emmigratsion" sabablar donor mamlakatlarda amal qiladi:

- iqtisodiy sabablar

– ishsiz qolish va ish topish imkoniyati yo'qligi, ish haqi darajasining pastligi; - ijtimoiy sabablar

– hayotda istiqbollar bo'lmasligi, ta'lim olish imkoniyati yo'qligi, kriminogen vaziyatning yomonlashishi, inson o'zini xavfsiz sezmasligi;

- etnik-diniy sabablar

- etnik, irqiy yoki diniy mansubligi bo'yicha kamsitish, etnoslar orasidagi ixtiloflar, "etnik tozalashlar";

- ma'muriy-siyosiy sabablar

– siyosiy qarashlar uchun ta'qib qilinishi, deportatsiya qilish;

- tabiiy sabablar – tabiiy ofatlar, ekologik vaziyat va iqlim sharoitining yomonlashuvi;

"Immigratsion" sabablar qabul qiladigan mamlakatlarda bo'ladi:

– ish topish mumkinligi, ish haqi darajasi yuqoriligi, rivojlangan infratuzilmadan foydalanish imkoniyati borligi;

– o'qishga kirish imkoniyati borligi, oila a'zolari, qarindoshlari borligi;

- etnik-diniy sabablar

- ma'muriy-siyosiy sabablar

– migrantlarni jalb qilish dasturlari;

– iqlim qulayligi, ekologik sharoit yaxshiligi.

“Oila migratsiyasi bu yangi oilaviy aloqalarni o‘rnatish tufayli kechadigan odamlarning oila bilan migratsiya qilishiga aytiladi”<sup>32</sup>. Va biz uni bir qancha toifaga ajratishimiz mumkin:

- Ilgari ko‘chib o‘tgan oila a‘zosi yoniga ko‘chib o‘tish maqsadida
- Asosiy migrant bilan birga bo‘lgan oila .
- Muhojir va shu davlat fuqarosi o‘rtasidagi nikoh

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holatda aytishimiz mumkinki “Oila migratsiyasi umumiy tushuncha sifatida oilani birlashtirish yoki oilani shakllantirish, ishchilarning oila a‘zolariga hamkorlik qilishi va umuman olganda oila birligi migratsiyasini o‘z ichiga oladi”.

Oila migratsiyasiga oid ma‘lumotlar juda kam bo‘lib faqatgina tashqi mehnat vazirligi qaydlari va aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari asosida shakllantiriladi. Bugungi globallashuv davrida mehnat migrantlarining dunyoning rivojlangan davlatlariga ishlash maqsadida oilaviy ko‘chib borishi ortib bormoqda va bu oila migratsiyasini chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi.

Olingan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, migratsiya ta‘siri ayniqsa bolalar hayotida muhim ta‘sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi va buni quyidagi sabablar yaqqol yoritib beradi:

- migrantlar ko‘pincha farzandlarini uyda yolg‘iz qoldirib ketadilar;
- ba‘zan o‘zlari bilan farzandlarini ham ko‘chirib olib kelishadi
- bolalar ota-onalar va vasiylari bo‘lmagan holatda ko‘proq mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Ota-onalari migrant bo‘lmagan bolalar ham ko‘plab muhojirlarni yuboradigan yoki qabul qiladigan hududlarda yashaganliklari sababli ham ta‘sirlanishadi. Ba‘zi bolalar esa qaytib kelgan migrantlar bolalari yoki ma‘lum bir sababga ko‘ra vataniga qaytarilgan yuborilgan.

Brenda S.A Yeoh oila migratsiyasi haqida shunday ma‘lumot beradi : “Odatda, oila migratsiyasi yangi bir hodisa emas”. Chunki, Insonlarning doimiy ko‘chib yurishi va yangi yerlarga joylashishi tarixdan ma‘lum. Oila migratsiyasi deganda, odamlarning chegara bo‘ylab oilalarga tegishli bo‘lgan sharoitda harakatlanishi tushuniladi.

Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, oila migratsiyasiga XVII asrda puritan diniy jamoat a‘zolarining inglizcha migratsiyasi yoki XIX asr oxiri XX asr boshlarida pogromlardan\* qochish uchun yahudiylarning emigratsiyasi misol bo‘lib, asosan buzilmagan oilalarning aholisi kam bo‘lgan mintaqalarga ko‘chib o‘tishiga va butun jamoalar hamda madaniyatlarning transplantatsiyasiga katta hissa qo‘shgan”. Yaqin tarixda geografik va madaniy ko‘lamdagi eng katta emigratsiyalar- odamlarning Eski Dunyodan Yangisiga transkontinental harakatlarini o‘z ichiga oladi<sup>33</sup>.

<sup>32</sup> Ko‘p qirrali migratsiya/ O. D. Vorobyova, A. V. Topilin tomonidan tahrirlangan. M. Iqt-axborot. 2014. 274-b.

<sup>33</sup> Brenda S.A. Yeoh and Cheng Yi En (2013). 2pg. Family migration. (<https://www.researchgate.net>).

\* P/S. Pogrom ( ruschada “по-гром - "vayron qilish, yo‘q qilish") - diniy , etnik , sinfiy yoki irqiy asoslarda aholining har qanday guruhiga qarshi qaratilgan ommaviy zo‘ravonlik harakatlari ; odatda ekstremistik tashkilotlar yoki politsiya tomonidan qo‘zg‘atiladi. Ba‘zi manbaalarda, Millatga yiki milliy guruhga qarshi qaratilgan, ommaviy o‘dirish va mol\*milkini talon taroj qilishdan iborat bo‘lgan reaksion shovinistik harakat.

| T r | Kim tomonidan berilgan                                       | Olimlarning oila migratsiyasiga bergan ta'rifi   |
|-----|--|--|
| 1   | Naomi Bushin <sup>34</sup>                                   | Oila migratsiyasi motivlariga bolalarning oilalardagi ishtiroki ta'sir qiladi deb hisoblanadi. Ammo ko'pincha oilaviy migratsiya qarorlarini qabul qilishda bolalarning hech qanday aloqasi yo'q.  |
| 2   | Denise L. Spitzer <sup>35</sup>                              | Oila migratsiyasi-turli usulda amalga oshiriladigan hodisa hisoblanib, u:<br><ul style="list-style-type: none"> <li>- Oilalarning birgalikda ko'chib ketishi hisobiga;</li> <li>- Oila a'zolarining migrant a'zosi (qarindoshi) yoniga borishi hisobiga;</li> <li>- Migrantlarning shu mamlakat fuqarosi yoniga borishi hisobiga amalga oshiriladi.</li> </ul> |
| 3   | Sara Xarbinson <sup>36</sup>                                 | Oila shaxsning ko'chib kelish qobiliyati va motivatsiyasining muhim omili hisoblanadi.   |
| 4   | O. D. Vorobyev va A.V. Topilin <sup>37</sup>                 | Aholi migratsiyasining asosiy kategoriyalaridan biri, oilani birlashirish uchun amalga oshiriladigan migratsiya bo'lib, ularga ota-onalarning farzandlari yoniga, turmush o'rtoqlarning nikoh sheriklari yoniga hamda farzandlarning ota-onalar yoniga ko'chishiga aytiladi.   |
| 5   | T.N. Yudina <sup>38</sup>                                    | Oilaviy migratsiya- nikoh tuzilishi va turmush o'rtoqlarning birga yoki birining yoniga, doimiy yashash uchun ko'chishi bilan bog'liq migratsiya.  |
| 6   | Brenda S.A Yeoh <sup>39</sup>                                | Oila migratsiyasi deganda, odamlarning chegara bo'ylab oilalarga tegishli bo'lgan sharoitda harakatlanishi tushuniladi.  |
| 7   | International Organization for Migration <sup>40</sup>       | Nikoh migratsiyasi- Migratsiya sharoitida migrantning shu mamlakatda yashashiga imkon beruvchi nikoh tuzish hamda mustahkam oilaviy birlikni yaratish uchun amalga oshirilgan migratsiya.  |
| 8   | International Organization for Migration (IOM) <sup>41</sup> | Oila migratsiyasi - bu:<br><ul style="list-style-type: none"> <li>-turmush o'rtoqlar, ota-onalar, bolalar va boshqa qarindoshlardan iborat oilani birlashtirish;</li> <li>-oilaning shakllanishi ya'ni migrantlar bilan fuqarolar ortasida yangi nikohlarning paydo bo'lishi;</li> </ul>   |

\*P/S. 1845-1852 yillarda Irlandiyada yuz bergan ocharchilik "Buyuk ocharchilik" yoki "kartoshka ocharchiligi" deb nomlangan.

<sup>34</sup> N. Bushin (2008). Researching family migration decision – making: a children –in- families approach. Population, Space and Place

<sup>35</sup> Denise L. Spitzer. (2013). Family Oriented Migration Policies&Social Integration. NYC.2018 May

<sup>36</sup> Migration and the family (<https://family.jrank.org>).

<sup>37</sup> Воробьев О.Д., Топилина А.В. Миграция населения: теория и политика. Учебное пособие. -М.: 2012г. 15ст.

<sup>38</sup> Юдина Т.Н. Миграция: словарь основных терминов. - М.: 2007г. -20 с.

<sup>39</sup> Brenda S.A Yeoh. Family Oriented Migration Policies&Social Integration. NYC.2018 May

<sup>40</sup> International Organization for Migration (2019). Glossary on migration. Geneva №34, 129pg.

<sup>41</sup> International Organization for Migration (2015). International dialogue on Migration: migration and families.p.33

|    |                                     |  |
|----|-------------------------------------|--|
|    |                                     | -ma'lum vaqt asosiy migrant bilan boshqa oila a'zolarining hamrohlik qilishi.  |
| 9  | Migration Data portal <sup>42</sup> | Oila migratsiyasi- bu yangi yoki o'rnatilgan oilaviy aloqalar tufayli migratsiya qilayotgan odamlardan iborat, oilani birlashtirish, ishchilarning oila a'zolariga hamrohlik qilishi bilan bo'liq jarayondir           |
| 10 | Bahriddinova M                      | Oila migratsiyasi bu –uzoq muddat davom etuvchi demografik jarayon bo'lib, unda oilaning ikki va undan ortiq a'zosi ishtirok etadi. Iqtisodiy sabablar oila migratsiyasini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.             |
| 11 | Omanova K.B.                        | Oila migratsiyasi- millatlararo integratsiyalashuvni amalga oshiruvchi hamda etnik assimilatsiya jarayonini tezlashishini ta'minlovchi va eng muhimi oilalar barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi demografik jarayondir. |

1845-1852 yillarda “kartoshka kasalligi”\* paytida Atlantika okeanidan AQShga “tobut kemalari”\* deb nomlangan million irlandiyalik shaxs va oilalarning qochib ketishi bu borada eng yaxshi o'rganilgan migratsiyalardan hisoblanadi. barcha Evropa emigratsiyasi, albatta, kataklizmik (halokat, ijtimoiy hayotda keskin o'zgarish) hodisalardan kelib chiqmagan, 1850-1914 yillarda turli xil kasblar va ijtimoiy tabaqalarga ega bo'lgan 40 milliondan ortiq odamlar turli sabablarga ko'ra Yevropada tug'ilgan joylarini tark etishdi – bu o'rtacha 400 million aholining o'ndan biri yoki, jami ishchi kuchining to'rtidan biri demakdir. Atlantika bo'ylab bunday keng ko'lamli emigratsiya uchun turli xil imkoniyatlar va motivlarni ochib berish imkonsizdir, chunki borishga yoki ketmaslikka qaror qilish oilaviy ish va oilaviy munosabatlar matritsasida ildiz otgan edi (Errington 2007:15pg).

Fikrimizga xulosa yasar ekanmiz, avvalo, oila migratsiyasi - demografiyaning bir qismi sifatida, demografik hamda iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'sir etar ekan, mamlakat o'z demografik hamda iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatini barqarorlashtirish maqsadida demografik siyosat bilan birga migratsiya siyosati, jumladan oila migratsiyasi siyosatini olib borishini ham taqazo etishini inobatga olishimiz lozim. Bunga esa, mamlakat hududiga kirib kelayotgan immigrantlar va ularning oilalarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularni boshpana hamda ish bilan ta'minlash borasida imtiyozlar berish, viza bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, millatlararo kelishmovchilik va ziddiyatlarning oldini olish shular jumlasidandir.

<sup>42</sup> Migration Data portal (2020). Family migration. (<https://migrationdataportal.org>)

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:*

1. *Ko‘p qirrali migratsiya/ O. D. Vorobyova, A. V. Topilin tomonidan tahrirlangan. M. Iqt-axborot. 2014. 274-b.*
2. *N. Bushin (2008). Researching family migration decision – making: a children-in- families approach. Population, Space and Place*
3. *Denise L. Spitzer. (2013). Family Oriented Migration Policies&Social Integration. NYC.2018 May*
4. *Migration and the family (<https://family.jrank.org>).*
5. *Воробьев О.Д., Топилина А.В. Миграция населения: теория и политика. Учебное пособие. -М.: 2012г. 15см.*
6. *Юдина Т.Н. Миграция: словарь основных терминов. - М.: 2007г. -20 с.*
7. *Brenda S.A Yeoh. Family Oriented Migration Policies&Social Integration. NYC.2018 May*
8. *International Organization for Migration (2019). Glossary on migration. Geneva №34, 129pg*
9. *International Organization for Migration (2015). International dialogue on Migration: migration and families.p.33*
10. *Migration Data portal (2020). Family migration. (<https://migrationdataportal.org>)*
11. *Brenda S.A. Yeoh and Cheng Yi En (2013). Family migration. (<https://www.researchgate.net>).*
12. *Brenda S.A. Yeoh and Cheng Yi En (2013). Family migration. 2- bet. (<https://www.researchgate.net>)*

## **IMPROVEMENT OF WAYS TO DEVELOP TOURISM INFRASTRUCTURE IN SAMARKAND REGION**

*Bolkiboyeva Ug‘iloy*

*Doctoral student of the scientific research center  
“Scientific bases and problems of the development  
of the economy of Uzbekistan” under TDIU*

Today, the tourism industry is considered as an income sector of economy. In particular, several works are being carried out in the regions of Uzbekistan to develop and improve the modern tourism infrastructure. In addition, regulatory legal documents, new standards and management systems regulating tourism activities are being improved. The decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 05.01.2019 No-PF-5611 on additional measures for the rapid development of tourism in the Republic of Uzbekistan was adopted [1]. Accordingly, comprehensive measures for the development of tourism in the country as one of the strategic sectors that ensure the diversification of the national economy, the rapid development of regions, the creation of new jobs, the increase of incomes and living standards of the population and the increase of the country's investment attractiveness are phased According to statistics, about 7 million foreign tourists came to Uzbekistan for tourist purposes in 2023 and their stay in the country increased to four days on average, which is 1.3 times more than in 2022. This positive situation means the rapid development of tourism in our country by increasing the level of world interest in our cultural heritage objects.